

## SOLIQ TIZIMIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7894631>

**Ziyodullayev Soatmurod Soatmo'min o'g'li**

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti magistranti*

**Shoaxmedova N.X**

*Ilmiy raxbar: dots.*

*ziyodullayevsoatmurod4@gmail.com*

+998903489676

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqola bank va soliq tizimida blokcheyn texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari va u asosida raqamli jamiyatni takomillashtirishga bag'ishlangan. Bundan tashqari blokcheyn tarmog'idagi bloklar ketma-ketligi, blokcheyn texnologiyasining asosiy xususiyatlari va afzalliklari ham o`z aksini topgan.

### **Kalit so'zlar.**

Blokcheyn texnologiyasi, virtual kompyuterlar, foydalanuvchilar, soliq to'lovlari, kriptovalyuta, aqli shartnoma, tranzaksiya.

Bugungi kunda blokcheyn texnologiyalari yangi inovatsion texnologiya yo'nalishi bo'lishiga qaramasdan bir qator ijtimoiy sohalarga kirib borib, o'z o'rnnini egallagan. Insonlarning intellektual ijodi mahsuli yaratilishining jadallahishi bilan bir qatorda, ulardan foydalanish, muhofazasini ta'minlash masalasi ham dolzarblashib bormoqda. Qolaversa, internet tarmog'ining jamiyatimiz hayotida kirib kelishining takomillashtishi oqibatida ma'lumotlar olish, axborot almashish hamda mulkka bo'lgan huquqlarning ruxsatsiz foydalanish ham oshib bormoqda. Ushbu holatda yaratilayotgan intellektual mulk obyektlarini shaffof, ishonchli himoyasini tashkillashtiruvchi texnologiyalarga talab ortib bormoqda. Sababi, intellektual mulk obyektlaridan foydalanishda, ularni fuqarolik huquqiy munosabatlar muomalasiga tatbiq etishda, ularning muhofazasi, nazorati va himoyasini ta'minlashda bir qator texnik usullarni amalda qo'llanilishi bugungi kunda barchamizga ma'lum. Hozirgi kun jamiyatining yashash sharoitlarini yengillashtirish vositasi sifatida qaralayotgan internet tarmog'i o'z o'rniда, intellektual mulk siyosatida yaratilgan obyektlarni muhofazasini ta'minlashda ishonchlilik nuqtai nazaridan emas, balki, ularning muhofazasini buzilishiga sababchi bo'layotganligini kuzatishimiz mumkin. Shu o'rinda, jamiyatimizning

ijtimoiy munosabatlarining barcha sohalarini axborotlashtirish dolzarbdir. Har bir jamiyat va davlatning rivojlanishi uchun raqamli texnologiyalarning ahamiyatini oshirmog'imiz, uning jamiyatimizning barcha jabhalariga kirib borishini ta'minlashimiz darkor. Barcha ma'lumotlarni saqlashning eng qulay usuli - bu uni taqsimlab qayd etishdir. Taqsimlangan ma'lumotlarning reyestri sifatida, bugungi kunda blokcheyn texnologiyasi namoyon bo'lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, blokcheyn tushunchasiga, uning kelib chiqish doirasiga aniqlik kiritadigan bo'lsak, ushbu tushuncha borasida, bir qator ta'riflar mavjud bo'lib, ularga birma bir to'xtalib o'tsak. Avvalombor, "blokcheyn" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "bloklar zanjiri" ma'nosini anglatadi. Boshqa bir adabiyotda keltirilgan ta'rifga asosan, "Blokcheyn - bu markazlashtirilmagan ma'lumotlar bazasi bo'lib, u o'zida undan ro'yxatdan o'tgan barcha ishtirokchilar ma'lumotlari (o'tkazmalari) haqida ma'lumotlarni alohida "zanjur" shaklida saqlash imkonini beradi".

Angliya bankining fikricha, "blokcheyn - bu bir-birini bilmaydigan insonlarga ishonchli tarzda va birgalikda foydalanish imkonini beradigan texnologiyadir". Bir so'z bilan aytganda, Blokcheyn - ma'lum qoidalar asosida tuzilgan ma'lumotni o'z ichiga olgan bloklarning doimiy ketma-ket zanjiridir.

Xulosa qilib aytganda, «hamma narsa interneti»ga «hamma narsa registri» kerak bo'ladi. Biznes, savdo va iqtisodiyotga ham raqamli hisoblashlar talab etiladi. Barchaga ma'lumki, tadbirkorlik iqtisodiyotning rivojlanishi va jamiyatning gullabyashnashi uchun juda muhimdir. Internet tadbirkorlarga yirikkompaniyalarning meros bo'lib qolgan madaniyatini, rivojlanishdan to'xtagan ishjarayonlarini va o'tmishning og'ir ballasti kabi muammolarini emas, balki imkoniyatlar va vositalar taqdim etgan holda tadbirkorlikni tom ma'noda ozodqilishi lozim. Biroq o'z egalarini milliarderga aylantirgan dotkomlarning ovozabo'lgan muvaffaqiyatlari yoqimsiz bir haqiqatni niqoblab turadi: ko'plab rivojlangan iqtisodiyotlarda tadbirkorlik va yangi kompaniyalar paydo bo'lishioxirgi o'ttiz yilda kuchli pasayishni his qilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda Internet davlatning halokatga eltadigan byurokratiyasiga qarshi kurashishga majburbo'layotgan potensial tadbirkorlar uchun to'siqlarni deyarli pasaytirmadi. Internetmilliardlab odamlarga o'z ishini boshlash uchun zarur bo'lgan moliyaviy vositalarga ularish imkonini bermadi. Albatta, tadbirkor bo'lish hammaning hamtaqdiriga bitilgan emas, lekin munosib pul ishlab topishga harakat qilayotgan hattoo'rtacha statistik insonga ham moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati yo'qligi va davlat cheklovlarining kuchayib ketganligi ancha xalal beradi. Bu albatta, murakkab muammo, lekin

blokcheyn ko'p jihatdan tadbirkorlikka va mos ravishda, biznesni gullab-yashnashga kuch-quvvat baxsh etishga qodir. Endi, muhim ahamiyatga ega bo'lish hamda o'z jamiyatidan tashqarida ishbilarmonlik faoliyati yuritish imkoniyatiga ega bo'lish uchun rivojlanayotgan mamlakatlardagi o'rtacha statistik fuqaro internetga ulangan qurilmaga ham ega bo'lishi zarur. Global iqtisodiyotga Internetga ulanishni kreditlash va moliyalashtirish manbalari, ta'minotchilar, hamkorlar va investitsiyalash uchun imkoniyatlarning keng miqyosdagi ochiqligini anglatadi. Har qanday iqtidor, har qanday resurs, hatto eng kichik bo'lsada, blokcheynda monetizatsiya qilinishi mumkin. Yangi platforma biz nimani va qanday qilib onlayn amalga oshirishimiz mumkinligini, bunda kim ishtirok etishini, shu tariqa eng dolzarb ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun texnologik sharoitlar yaratishga imkon beradi. Agar bu vazifani uddalashning imkoni bo'lmasa, ko'p narsa va'da qiladigan blokcheyn texnologiyasi cheklanadi yoki umuman yo'q qilinadi. Bundan ham yomoni, u kuchli institutlar qo'lidagi quroqla aylanishi mumkin bo'lib, uning yordamida ular o'z holatini saqlab qoladi, yoki, agar unga hukumat ulanish imkoniga ega bo'lsa, blokcheyn yangi total kuzatuv jamiyati uchun bir vositaga aylanadi. Taqsimlangan dasturiy ta'minot, shifrlash, mustaqil agentlar va hatto sun'iy intellekt chambarchas bog'langan texnologiyalari nazorat ostidan chiqishi va o'z yaratuvchilariga qarshi ishlashi ham mumkin.

Soliq tizimida blokcheyn texnologiyasi Soliq va to'lovlar sohasida yangi raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni substansial sifatida namoyon bo'ladi, chunki hozirgi vaqtida tasavvur qilishning imkoni yo'q. Soliq ma'muriyatçiliginini amalga oshirish hamda soliq huquqi nazariyasini rivojlantirish texnologik rivojlanish omilining ta'sirini hisobga olmasdan haqiqiy soliq munosabatlarini ko'rish mumkin emas. Shu bilan birga, eng ko'p muhokama qilinadigan raqamli texnologiya fanda blokcheyn texnologiyasi hisoblanadi. Talapina. E.V.ning fikriga ko'ra, butun dunyo u yoki bu darajada blokcheyn qayerda ishlatalishini, u qanday xavf-xatarlardan qochishini va nima ekanligini tushunishi kerak deydi. Shuni ta'kidlash kerakki, blokcheyn texnologiyasi yangi hodisa emas va uning amaliy qo'llanilishi va nazariy tadqiqotlari an'anaviy tarzda kriptavalyuta bilan bog'langan bo'lib, aqli shartnomalar jarayonida zarur texnologik element faoliyati deb ko'rsatilmoque da. Soliq qonunchiligidida blokcheyn texnologiyasini qo'llash xarajatlarni kamaytirish va hujjat aylanishi uchun zarurdir. Amaldagi soliq qonunchiligin o'zgartirish, raqamli iqtisodiyotni izchil rivojlantirish uchun sharoit yaratish

uchun soliq ma'muriyat chiligidan blokcheyn texnologiyasini faol qo'llash imkoniyatini yaratilmoqda, shuningdek soliq majburiyatlarini belgilash va bajarish ham blokcheyning bog'liq bo'lib qolmoqda. Blokcheyn texnologiyasi an'anaviy ravishda soliq tizimida eng katta foyda keltiradigan raqamlari vositalardan biridir. Tadqiqotchilar soliq tizimini avtomatlash tirishni takomillashtirishning istiqbolli vositasi sifatida blokcheyn texnologiyasini qo'llash engsamarali usul ekanligini o'rganishmoqda. Bu soliq tizimida blokcheyn texnologiyasini o'rganishni belgilaydi. Raqamlari davr qonuni va uni soliqda qo'llash imkoniyatlarini baholash jarayonini ko'rsatib beradi. Blokcheyn texnologiyasidan faol foydalanish orqali soliq qonunchiligining rivojlanishini baholash kelib chiqmoqda. Soliq tizimida blokcheynni qo'llash shuningdek, soliq organlarining tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan soliq nazoratini amalga oshirishdagi faoliyati sifatidatishunish odatiy tarzda qabul qilingan.

Blokcheyn texnologiyasi faqatgina moliya yoki iqtisodiyot sohasida emas, balki boshqa bir qator ijtimoiy sohalarda ham o'z samarasini beradi. O'z navbatida tibbiyot sohasida mazkur texnologiyaning tatbiq etilishining ahamiyatini tahlil etishimiz maqsadga muvofiqdir. Texnologiya tomonidan axborotning o'zgarmasligini, o'zgartirilgan ma'lumotlarni kuzatish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash kabi o'ziga xos imkoniyatlari blokcheynning bemorlarning elektron kasallik tarixini saqlash, ularni boshqarish hamda erkin almashinuvini ta'minlashda ham xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda, MedVice platformasi Stellar nomli blokcheyn tizimi hamda sun'iy intellekt yordamida bemorlarning tibbiy ma'lumotnomalari analiz qilish oqibatida ularni to'playdi hamda samarali xizmat ko'rsatish usullarini taklif etadi. Shu bilan bir qatorda, blokcheyn o'z o'rnila tibbiy ko'riklar haqidagi ma'lumotlarni saqlashda ham o'z imkoniyatlarini namoyish etadi. IBM kompaniyasi COVID-19 koronavirusiga qarshi kurashda yordam beruvchi MiPasa loyihasi ustida ishlamoqda. Yechim barcha ishtirokchilar uchun yagona bilim bazasini yaratish maqsadida turli manbalardan tibbiy, ilmiy va tadqiqot ma'lumotlarini to'plash, ularni sinxronlashtirish, kamchiliklar va farqlarni aniqlash uchun mo'ljalangan. MiPasa – bu Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Kasalliklarni nazorat qilish markazi, Isroil Sog'liqni saqlash vazirligi va boshqa malakali muassasalardan olingan koronavirus haqida tasdiqlangan ma'lumotlar uchun ochiq platforma hisoblanadi. Qolaversa, tibbiyot sohasida qalbaki dori vositalarini ishlab chiqarish hamda ularni tijoratlashtirish eng keng tarqalgan muammolardan biri hisoblanadi desak adashmagan bo'lamiz. Blokcheyn texnologiyasini tatbiq etish tibbiyot preparatlari

bilan bog'liq firibgarliklarni profilaktika qilishga ko'maklashadi. Xususan, Xitoyning SF Express kurer kompaniyasi COVID-19 pandemiyasi paytida dori-darmonlarni yetkazib berishni kuzatish uchun blokcheyn texnologiyasidan foydalanadi. Tibbiyotdagi aqli qurilmalar doimiy ravishda shifokorlarga real vaqtda bemorlarning ahvoli to'g'risida ma'lumot to'plash orqali yordam beradi: yurak urishi, kislorod darajasi, tana harorati va boshqa ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlar hamda blokcheyn texnologiyasida bunday muhim ma'lumotlarni saqlash ularning xavfsizligi va ishonchlilagini oshiradi9 .

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Справочник. Электронный ресурс [www.ciat.org](http://www.ciat.org)
2. Young Ran (Christine) Kim "Blockchain Initiatives for Tax Administration", 4-Mar-21
3. Справочник. Электронный ресурс <https://doaj.org/article/>
4. Справочник. Электронный ресурс <https://www.tapinto.net/towns/scotch-plains-slash-fanwood/sections/business-and-finance/articles/blockchain-technology-and-the-inherent-impact-on-taxes>
5. Григорьев В.В. Указ.соч. С. 489
6. Intellektual mulk. Darslik. Mas'ul muharrirlar: yu.f.d., prof., O.Oqyulov, yu.f.f.d. (PhD), dotsent N.E.Gafurova // Muallifla jamoasi. – T., TDYU nashriyoti, 2019. – 588 bet
7. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.08.2021 y., 03/21/709/0808-son